

O‘QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Nurmuhammadova Sevara Anvar qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi 4- kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati va psixologik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Muloqotning samarali shakllari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik o‘zaro ta’sir, hamda zamonaviy ta’lim tizimida muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari o‘qituvchining professional rivojlanishida muloqotning o‘rnini chuqur tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: muloqot madaniyati, psixologiya, o‘qituvchi, ta’lim, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya.

Абстрактный: В статье подчеркивается важность культуры общения и психологических подходов в профессиональной деятельности учителя. Представлены эффективные формы общения, психологического взаимодействия педагога и ученика, методические рекомендации по формированию коммуникативных компетенций в современной системе образования. Результаты исследования дают глубокий анализ роли коммуникации в профессиональном развитии учителя.

Ключевые слова: культура общения, психология, учитель, образование, педагогическое общение, коммуникативная компетентность.

Abstract: This article highlights the importance of communication culture and psychological approaches in the professional activity of a teacher. Effective forms of communication, psychological interaction between a teacher and a student, as well as methodological recommendations for the formation of communication competencies in the modern education system are presented. The results of the study provide a deep analysis of the role of communication in the professional development of a teacher.

Keywords: communication culture, psychology, teacher, education, pedagogical communication, communicative competence.

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining muloqot madaniyati va psixologik saviyasi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Muloqot – bu nafaqat axborot almashinuvi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojiga ta’sir qiluvchi asosiy vositadir. O‘qituvchi kasbiy

faoliyatida samarali muloqot yurita olish, har bir o‘quvchining psixologik holatini inobatga olish, individual yondashuv ko‘rsatish orqali ta‘lim samaradorligini oshiradi. Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o‘rganish uchun ham taqlid orqali o‘zaro muloqotda bo‘lish zarur. Jamiyat qonun-qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Indivud bilan shaxs muloqoti o‘rtasida juda katta farqni ko‘rish mumkin. Masalan, go‘dak, ruhiy kasal, ongi past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqoti o‘rtasida katta farq bor. Ongli shaxs muloqotni boshlashdan avval miyasida o‘ylaydi, so‘zlarini rejalashtiradi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o‘rni katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog‘chada bolaga kattalar muloqot orqali ta‘sir qiladilar. Shaxs muloqotining shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o‘rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta‘sir etadigan so‘zlarni qo‘llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergan ko‘rsatmalarigizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi lozim. Muloqot ta‘lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo‘pol munosabatda bo‘lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin.

Muloqot - yunoncha so‘z bo‘lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o‘zaro fikr almashuv ma‘nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so‘zlashuvida paydo bo‘ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tairiba, ta‘limtarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me‘yorlar g‘oya va mafkura omillari ta‘sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi.

O‘qituvchi muloqotida psixologik yondashuv. Pedagogik muloqotda psixologik bilimlardan foydalanish muhim hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, temperamentlari, hissiy holatlari va shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda:

motivatsiya beruvchi,

qo‘llab-quvvatlovchi,

konstruktiv tanqid qiluvchi uslubda muloqot qilishi lozim. Shu o‘rinda ikki mashhur pedagoglarning so‘zini keltirib o‘taman. A.S. Makarenko shunday degan edi: "Men bir so‘zni 15-20 xil ohang bilan va yuz, tovush, gavdamni 20 xil holatga tushira olganimdan so‘nggina o‘zimni haqiqiy pedagog den hisobladim". Amerikalik pedagoglar D. Brofi va T. Gudlar esa "O‘qituvchi va o‘quvchi munosabati" kitobida shunday yozadi: "O‘qituvchi uchun muloqot tabiiy va xursandchilik bo‘lmasa-o‘qituvchi maktabdan ketishga tayyor bo‘laversin"

Masalan, introvert o‘quvchi bilan shaxsiy suhbatlar, extrovertlar bilan esa guruh muhokamalari samarali bo‘lishi mumkin.

Muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari

O‘qituvchi quyidagi yo‘llar bilan muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishi mumkin:
psixologik treninglar,

kommunikativ texnikalarga oid seminarlar,

rolli o‘yinlar orqali mashqlar,

tajribali hamkasblardan o‘rganish.

Bundan tashqari, doimiy refleksiya va o‘z ustida ishlash o‘qituvchining shaxsiy o‘sishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim va raqamli kommunikatsiya. Bugungi kunda onlayn muloqot vositalari (Zoom, Google Meet, messendjerlar) o‘qituvchilarning asosiy ishlash maydoniga aylangan. Bunda ham muloqot madaniyati va psixologiyasi muhim o‘rin tutadi. Ekran orqali ifodalanadigan hissiyotlar, tinglash madaniyati, tana tili o‘rnini bosuvchi vositalardan foydalanish kabi ko‘nikmalar zarur.

Pedagogik muloqot — pedagogik ta’siming ajralmas sifatidir. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo‘lib, unda ma’lumot almashinadi va o‘quvchilarga o‘quv tarbiyaviy ta’sir o‘tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o‘zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O‘quvchilar ham o‘qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo o‘z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o‘qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Ushbu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo‘lishi shubhasiz. Har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to‘g‘ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etish zarur. O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning muloqotda bir-birlarini o‘zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o‘quvchining ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoatkorlik munosabati, o‘quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsional jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot doimiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o‘qituvchi o‘zining muammolaridan, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklaridan kelib chiqib, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo‘nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko‘maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlantirib borishni ta’minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi.

Muloqotga ba’zi o‘quvchilarning sub’ektiv qarashlarini aniqlash, shu o‘quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi uchun zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak.

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba’zilar o‘ylaganidek, axloqshunoslikning mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o‘rganish kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o‘rin egallashi mumkin. Zero kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o‘zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma’naviy hodisa sifatida baholanishi lozim. Ta’lim jarayonida shaxs shaxsga aylanib, tilni tobora to’liq o’zlashtirib, boshqalar bilan munosabatlarning axloqiy me’yorlarini, shu jumladan nutq munosabatlarini ham o’rganadi, boshqacha aytganda, til vositalari yordamida muloqot qilish madaniyatini o’zlashtiradi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasiga asoslangan yondashuvlar uning pedagogik samaradorligini oshiradi. Muloqot – bu faqat aloqa emas, balki o‘quvchini tarbiyalovchi, uning shaxsini rivojlantiruvchi jarayondir. Har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatida bu sohalarga e’tibor qaratishi, zamonaviy ta’lim talablari asosida o‘zini rivojlantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch". – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Abdullayeva G’. "Pedagogik muloqot psixologiyasi". – T.: O‘qituvchi, 2017.
3. G‘ofurov K. va boshq. "Kasbiy pedagogika". – T.: Fan, 2020.
4. Axmedova D. "O‘qituvchi psixologiyasi". – T.: TDPU, 2019.
5. Vygotsky L. S. "Pedagogik psixologiya". – M.: Prosveshchenie, 1991.
6. Rogers C. "Shaxsiy o‘sish yo‘lida". – T.: Innovatsiya, 2021.
7. Yusupov A. "Kommunikativ kompetensiya va uni shakllantirish yo‘llari". – T.: Ilm Ziyo, 2022.
8. Mavlonova.R.A, Rahmonqulova.H.N, Matnazarova K.O, Shirinov.M.K, Hafizov .S. Umumiy pedagogika. Toshkent 2018.
9. Komilova, V. (2022). O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI. Scientific progress, 3(4), 1150-1155.
10. Abdullayeva, X. Y. (2022). O 'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASI KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. Academic research in educational sciences, 3(3), 349-351.